

**BUXORO VILOYATIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI**

Rustamov Adhamjon Abdixoshim o'g'li

Buxoro davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20697356>

**Kalit so'zlar:** *agroturizm, Buxoro viloyati, qorakol qo'ychilik, SWOT tahlili, turizm salohiyati, barqaror rivojlanish.*

**Kirish.** Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida qishloq hududlarida barqaror iqtisodiyotni shakllantirish dolzarb masalaga aylangan. Agroturizm ushbu vazifani hal etishning samarali usullaridan biri sifatida jahon amaliyotida keng tan olingan. UNWTO ma'lumotlariga ko'ra, jahon agroturizm bozori hajmi 2022 yilda 62,5 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, 2030 yilga kelib 141 mlrd dollarga yetishi prognoz qilinmoqda (yillik o'sish sur'ati 13,4%). Buxoro viloyati o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, noyob qishloq xo'jaligi an'analari va rivojlangan turizm infratuzilmasi bilan ushbu yo'nalishda alohida salohiyatga ega.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Buxoro viloyatining agroturizm salohiyatini baholashda SWOT tahlili, miqdoriy ko'rsatkichlar tizimi va ARIMA prognostik modeli qo'llanildi. Tadqiqot Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston turizm qo'mitasi va viloyat statistika ma'lumotlariga asoslandi.

**Asosiy natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Buxoro viloyatining umumiy agroturizm salohiyati indeksi 0,68 ni tashkil etib (maksimal 1,0), "yuqori salohiyat" toifasiga kiradi. Viloyatda 4 883 ta fermer xo'jaligi va 23 ta agroklastar faoliyat ko'rsatmoqda. 2024 yilda viloyatga 5,76 million sayyoh (shu jumladan 1,75 million xorijiy) tashrif buyurib, turizm daromadi 436,3 mln AQSh dollarini tashkil etdi.

Agroturizm rivojlanishi uchun eng istiqbolli yo'nalishlar aniqlandi:

- qorakol qo'ychilik asosidagi noyob turistik mahsulot (28% salohiyat ulushi) – dunyo eng qadimgi qo'y zotlaridan biri bo'lgan qorakolning miloddan avvalgi 1400 yillardan Buxoro hududida yetishtirilib kelinishi viloyatga jahon agroturizm bozorida o'ziga xos o'rin egallash imkonini beradi;

- gastronomik agroturizm (25%) – palov, shashlik, non tayyorlash kabi boy an'analar asosida xalqaro standartdagi gastronomik turlar tashkil etish;

- hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi integratsiyasi (22%) – zargarlik, kashtachilik, kulolchilik an'analari fermer xo'jaliklari bilan birlashtirish;

- bog'dorchilik-uzumchilik turizmi (15%) va ekologik fermer turizmi (10%).

**Infratuzilma holati.** Hozirda viloyatda atigi 15 ta fermer mehmonxonasi, 8 ta agroturistik restoran va 5 ta fermer xo'jaliklaridagi ekskursiya yo'nalishi mavjud. 2030 yilga kelib bu ko'rsatkichlarni mos ravishda 100, 50 va 30 taga yetkazish zarur. Yagona onlayn bron platformasi va sifat sertifikatlash tizimi tashkil etilishi muhim vazifa hisoblanadi.

**Prognoz.** ARIMA modeliga asoslanib tuzilgan prognostik hisobga ko'ra, samarali strategiya amalga oshirilgan taqdirda 2030 yilga kelib Buxoro viloyatida agroturizmdan olinadigan yillik daromad 64 mln AQSh dollariga yetishi, 2 500 dan ortiq doimiy ish o'rni yaratilishi va 320 ming sayyoh jalb etilishi mumkin. Bu uchun 2025–2030 yillarda jami 18,8 mln dollar investitsiya zarur.

**Xulosa.** Buxoro viloyati agroturizmni rivojlantirishda O'zbekiston uchun model hududga aylanish salohiyatiga ega. Bunga erishish uchun: (1) agroturizm bo'yicha viloyat darajasidagi

huquqiy baza mustahkamlash, (2) "Qorakol mehmondorligi" yagona brendini joriy etish, (3) tumanlar bo'yicha agroturizm ixtisoslashuvini belgilash, (4) kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi. Xalqaro tajriba (Avstriya, Italiya, Janubiy Koreya modellari) viloyat sharoitiga moslashtirilgan holda qo'llanilishi lozim.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. UNWTO. (2023). Rural Tourism. World Tourism Organization. Madrid.
2. Phillip S., Hunter C., Blackstock K. (2010). A typology for defining agritourism. *Tourism Management*, 31(6), 754–758.
3. FAO-EBRD. (2021). Agritourism Infrastructure Guidelines.
4. O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi. (2024). Buxoro viloyati turizm ko'rsatkichlari.
5. Qishloq xo'jaligi vazirligi. (2025). Buxoro viloyatida fermer xo'jaliklari ro'yxati.